

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI O‘QUV FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA AMALIY ISHLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Xudaynazarov Egambergan

Urganch davlat universiteti katta o’qituvchisi

Bekberanova Nazokat Oybek qizi

Urganch davlat universiteti magistranti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv faolligini rivojlanterishda amaliy ishlardan foydalanish metodikasiga doir ayrim mulohazalar keltirilgan va ular muallif tomonidan asoslangan.*

**Kalit so’zla:** faollik, yo’nalganlik, matematik masala, amaliy ish, faollikni rivojlanterish.

### ABSTRACT

*In this article, some comments on the methodology of using practical work in the development of educational activity of primary school students are presented, and they are based on the author.*

**Keywords:** activity, direction, mathematical problem, practical work, development of activity.

### KIRISH

Ta’limning turli darajalarida amalga oshiriladigan ta’limning maqsadi, vazifalari va mazmuni har doim jamiyatning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlari bilan belgilab qo‘yilgan. Ilmiy, texnikaviy, ijtimoiy-madaniy sohalarda sodir bo‘layotgan global va milliy miqyosdagi o‘zgarishlardan qat’iy nazar, oliy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri yuqori darajadagi ma’naviy va axloqiy madaniyatga ega bo‘lgan intellektual va jismonan rivojlangan, kasbiy o’sish va shaxsiy rivojlanish qobiliyatiga ega bo‘lgan bo‘lajak mutaxassisni tayyorlash hisoblanadi.

So‘nggi yillarda o‘quvchilarning moslashuvchan, samarali fikrlash qobiliyatini rivojlanterish, tez o‘zgaruvchan sharoitlarda qaror qabul qilish qobiliyati, berilgan cheklolvar ostida muqobil, nostandart g‘oyalarni izlash zarurligi to‘g‘risida, divergent deb nomlangan ko‘p o‘lchovli, chiziqli bo‘lmagan, turli xil fikrlarni shakllantirish haqida tobora ko‘proq aytimoqda.

### METOD VA METODOLOGIYA

Bir qator olimlarning tadqiqtari shuni ko‘rsatadiki, faoliyatli yondoshuvni qo‘llab tafakkurni tezlik (vaqt birligi uchun maksimal g‘oyalar soni), egiluvchanlik

(shakllangan g‘oyalar xilma-xilligi doirasi), o‘ziga xoslik (nostandart, noan’anaviy g‘oyalar darajasi) va aniqlik (g‘oyalarning to‘liqligi, to‘g‘riligi) mezonlarini shakllantirishga, rivojlantirishga qaratilgan fikrlash usulidir. Shuning uchun o‘quv jarayoni ijodkorlik, qiziqish, shaxsning o‘zini namoyon qilish istagi, materialning boshqacha taqdimoti, olingan natijalarni baholashning boshqacha mezonlari bilan osonlashtiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida tafakkur tushunchasi asosan majoziy ma’noga ega hisoblanadi. Ya’ni tarbiyaviy vazifani shakllantirish, avvalambor, og‘zaki nizolar ko‘rinishida emas, balki tug‘iladigan konsepsiyalarning hissiy asosini ta’minlaydigan ob’ektiv va o‘yin harakatlari shaklida amalga oshirilishi kerak.

Masalalar va muammolarni echish orqali o‘quvchilarning narsalarga bo‘lgan qiziqishlari rivojlanadi, mustaqillik, erkinlik, maqsadga intilish, mehnatsevarlik kabi ijobiy fazilatlari shakllanadi va natijada bola shaxsan tarbiyalanadi. Ular o‘z shahri, qishlog‘ining hayoti, ishlab chiqarish amaliyoti, kishilar mehnati bilan tanishadilar.

Bunda boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan bir nechta fanlardagi muammo va topshiriqlarni echimlarini topish usullaridan foydalanamiz. Quyida topshiriqlarni bajarishni boshlang‘ich ta’lim fanlari misolida o‘rgatishdan, qo‘llashdan namunalar keltiramiz.

## **TAHLIL VA MUHOKAMA**

Berilgan muammoni bir necha yechimlarini topishga doir mashq va topshiriqlarni dastlab ona tili fani misolida ko‘rib chiqamiz.

1-topshiriq. Rasmda berilgan so’zlar nomini yozing va ular ishtirokida gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizdagi narsani bildirgan so’zlarni tagiga chizing.



Namuna: Qo'g'irchoq. Menga oyim kecha qo'g'irchoq olib berdi.

Rasmda berilgan so'zlar nomini yozing ko'rinishidagi topshiriqni yechish orqali o'quvchilarda narsalarning nomini va ularning yozilishini tezroq o'rgatish maqsadga muvofiq bo'lib, o'quvchilarda topqirlik va ularni tez ko'rsata olish, ya'ni shunga xos fikrlashlarni nazarda tutadi.

### **2-topshiriq. Gaplarni to'g'ri tartibda tuzing?**

- 1.yashayman,O'zbekistonda ,Men.
- 2.pushti,yarashadi,Oyimga ,rangli,juda,ko'ylak.
- 3.yoqtiradi,o'qishni,kitob,o'quvchilar.
- 4.Sohiba,chiroyli,yozadi,juda.
- 5.berdi,yaxshi,tushuntirib,darsini,o'qituvchimiz.
- 6.chiqdilar,bugun,tabiatni,bolalar,kuzatishga.
- 7.tabrikladı,bayramda,bir-birini,hamma.
- 8.o'tkazildi,Bayram,zalda,katta.
- 9.Mohigul,chiqdi,gulzorga,gul ,terish uchun.
- 10.matematikada,bolalarni,dars,qiziqtirib,o'tish,qo'ydi.

Bu topshiriqda o'quvchilar gaplar ichidagi so'zlarni turlicha talqinda qo'yib gap mazmunini chiqarishga harakat qilishadi.

Masalan, 1) Men O'zbekistonda yashayman yoki O'zbekistonda men yashayman.

- 2) a) Oyimga pushti rangli ko'ylak juda yarashadi  
 b) Pushti rangli ko'ylak oyimga juda yarashadi  
 d) Oyimga juda pushti rangli ko'ylak yarashadi.

Bitta gap 3ta ko'rinishda yozilyapti. Bu gaplarning uchalasi ham to'g'ri.

Gaplarni doskada o'qituvchi yozdirmasdan mustaqil topshiriq berib, o'zlarini fikrlashga undashi kerak.

Yettinchi gapni oladigan bo'lsak ,uni quyidagicha ko'rinishlarda yozish mumkin.

a) Hamma bir-birini bayramda tabrikldi b) Hamma bayramda bir-birini tabrikldi. d) Bir-birini hamma bayramda tabrikldi e) Bir-birini bayramda hamma tabrikldi

f) Bayramda hamma bir-birini tabrikldi g) Bayramda bir-birini hamma tabrikldi.

Tuzilgan har bir gap o'quvchilarning o'zi tomonidan tahlil qilinadi. Yuqorida aytganimizdek topshiriqlarni bu usullarda bajartirish orqali o'quvchilarning og'zaki nutqi va fikrlash qobiliyati yaxshi rivojlanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'llimda o'tiladigan har bir fanni, har bir mavzusida yuqoridagi kabi turli xil fikrlashni talab qiladigan muammoli vaziyatlarni tashkil qilishi va o'quvchilarni muammoga ijodiy yondashishlariga jalg qilishi lozim.

### **Jadval ichidan so'zlarni toping va uni qaysi so'z turkumiga kirishini yozing.**

G	U	L	X	O	T
M	N	B	O	G'	O
Q	U	Y	O	SH	G'
U	R	U	CH	K	A
Y	Y	R	O'	O	N
O	O'	T	G'	N	O
N	L	D	O	N	R

Bu topshiriqda o'quvchilarni so'z tuza olish, harflardan yangi mazmundagi so'zlarni hosil qilish, so'z boyliklarini orttirishga qaratilgan topshiriq nazarda tutilgan bo'lib, o'quvchilarni topqirlilikka, asosan, so'z tuzishga qaratilgan fikrlashini rivojlantirish nazarda tutiladi.

**1. Matnli masala:** Bilimlar bellashuvida Botir, Davron va Karim qatnashib, turlicha ball olishdi. Botir bilan Davron birgalikda 53 ball, Karim bilan Botir birgalikda 85 ball, hamda, Davron va Karim birgalikda 70 ball toplashgan bo'lsa, bolalarning har biri necha balldan toplashgan[33]?

Bilimlar bellashuvida Anvar, Bahodir va Dilshod qatnashib, turlicha ball olishdi. Anvar bilan Bahodir birgalikda 64 ball, Dilshod bilan Anvar birgalikda 74 ball, hamda, Bahodir va Dilshod birgalikda 70 ball toplashgan bo'lsa, bolalarning har biri necha balldan toplashgan[33]?

Yechish: Bu masalani yechishda biz bir necha turdag'i arifmetik usullardan foydalanamiz.

1-usul. Masalani yechimga olib keluvchi asosiy ishni bajaramiz.

Berilgan ballarni barchasini qo'shib yig'indini topamiz.

$$53+70+85=123+85=208$$

Bu yig'indida har bir bolaning toplagan ballari ikki martadan qatnashgani uchun, yig'indini ikkiga bo'lib, uchta bolaning birgalikdagi toplagan ballarini topamiz.  $208:2=104$

Uchalasini birgalikdagi ballaridan Botir va Davronning birgalikdagi ballarini ayirsak Karimning bali qoladi.  $104-53=51$  ball.

Karim bilan Botirning birgalikdagi ballaridan Karimning balini ayirsak, Botirning bali qoladi.  $85-51=34$  ball.

Botir bilan Davronning birgalikdagi ballaridan Botirning balini ayirsak, Davronning bali qoladi.  $53-34=19$  ball.

Bundan Botir 34 ball, Davron 19 ball va Karim 51 ball olganliklarini bilib olamiz.

Xuddi shu tartibda uchta bolani birgalikdagi ballari yig'indisini topganimizdan so'ng, shu yig'indidan boshqa juftlikni birgalikdagi ballarini ayirib, yana bir necha yechim turini ko'rsatishimiz mumkin bo'ladi.

2-usul. Bunda ham uchta bolani birgalikdagi ballari yig'indisi topiladi. Berilgan juftliklar yig'indisidan ikkitasinikini qo'shib olamiz. Masalan, Botir va Davron hamda, Karim va Davronning birgalikdagi ballari yig'indisini.  $53+70=123$  ball.

Yig‘indimizda Davronning bali ikki marta qatnashayotganini e’tiborga olamiz va shu yig‘indidan uchala bolani birgalikdagi ballari yig‘indisini ayiramiz, shunda Davronning bali kelib chiqadi.

123-104=19 ball.

Davom etamiz, Davron va Botirning birgalikdagi ballari yig‘indisidan Davronning balini ayirsak, Botirning bali qoladi.

53-19=34 ball

Davron va Karimning birgalikdagi ballari yig‘indisidan Davronning balini ayirsak, Karimning to‘plagan bali qoladi.

70-19=51 ball.

Ikkinci usulning ham bir necha turlaridan foydalanib yechimni topishimiz mumkin bo‘ladi.

3-usul. Bu usulda mulohazalar yuritish orqali yechimni izlaymiz.

Karim + Botir=85 va Davron+Karim=70 ga tengligidan ikkita yig‘indida ham Karim qatnashayotganini va uning bali ikkita yig‘indida ham bir xil ekanligini bilamiz. Bu yerda Botirning bali Davronning balidan (85-70=15) 15 ball ortiq ekanligini aniqlaymiz.

Keyingi ishimiz Botir bilan Davronning birgalikdagi ballaridan 15 ni ayirib ularni balini tenglab olamiz va ikkiga bo‘lib Davronning balini topib olamiz. 53-15=38 38:2=19 ball.

Botirning bali Davronnikidan 15 ga ortiqligidan Botirning balini topamiz. 19+15=34 ball.

Davron va Karimning birgalikdagi ballaridan Davronning balini ayirib, Karimning balini aniqlaymiz. 70-19=51 ball.

Demak javob, Botir 34, Davron 19 va Karim 51 ball to‘plashgan.

Masalani bu usulda bajarishni ham bir necha variantlarini ishlab chiqimiz mumkin.

**2. Mantiqiy masala:** Durdon, Barno, Munira va Sevara tikuv xonasi oldida uchrashishga kelishishdi. Agar Sevara Durdonadan oldin kelgan bo‘lib, lekin birinchi bo‘lib kelmagan bo‘lsa, Barno esa eng keyin kelgan bo‘lsa, qizlar uchrashish joyiga qanday ketma-ketlikda kelganligini aniqlang[33].

Yechish. 1-usul: Masala modelini quramiz. Bu holda to‘g‘ri chiziq “vaqt chizig‘i” vazifasini o‘taydi. Qizlarni to‘g‘ri chiziqdida ularning bosh harflari ko‘rsatilgan nuqtalar bilan, hamda ularning oldin kelganlarini to‘g‘ri chiziqdida o‘ngroqda, keyin kelganlarini esa chaproqda belgilashga kelishib olamiz.

So‘ngra tartib bilan har bir shartni to‘g‘ri chiziqdada belgilaymiz.

- Saida Durdonadan oldin kelgan, demak S nuqta D nuqtadan o'ngda joylashadi;

**D**                   **C**

---

- Bahora eng keyin kelganligi, hamda Sevara va Durdonadan oldin kelmaganligi uchun B nuqta S va D nuqtalardan chapda joylashadi;

**B**                   **D**                   **C**

---

- Sevara birinchi bo'lib kelmaganligi va Barno eng keyin kelganligi uchun M nuqta SD va DB kesmalarda tegishli emas, bo'lib S nuqtadan o'ngda joylashadi. Demak, Munira birinchi bo'lib kelgan.

**B**                   **D**                   **C**                   **M**

---

To'g'ri chiziqda nuqtalarning joylashishidan bolalar quyidagi: Munira, Sevara, Durdona, Barno ketma-ketligida uchrashish joyiga kelishganligini aniqlaymiz.

2-usul: Yechimni topishning bu usulida fikrlar zanjirining ketma-ketligidan foydalanamiz. Bunda Sevara Durdonadan oldin kelganligi va birinchi bo'lib kelmaganligidan hamda, Barno eng keyin kelganligidan Muniraning birinchi kelganligini aniqlaymiz. Sevara esa Durdona va Barnodan oldin kelganligi hamda, Barno eng oxirida kelganligidan Durdona uchinchi bo'lib kelganini aniqlashimiz mumkin bo'ladi.

Matematika fanida bajariladigan ko'pgina masalalarni, boshqotirmalarni, nostandard misollarni echishda divergent fikrlash usullaridan foydalanishimiz va ta'lim berishning yuqori samaradorligiga erishishimiz mumkin bo'ladi.

### O'qish fani misolida

1. Matnda tushib qolgan harflarni o'rniga i yoki e harfini mosini qo'yib keting.

Navro'z bizn\*ng m\*ll\*y bayramlar\*mizdan b\*ridir. Navro'z bayrami O'zb\*kistonda 21-mart kuni n\*shonlanadi. Navro'z bayram\*da m\*ll\*y taomlardan sumalak, ko'k somsa kab\*lar p\*shiriladi. Navro'z bayram\*da saylga ham chiq\*shadi. U y\*rda odamlar o'yin kulgu qil\*shadi, raqsga tush\*shadi, sumalak tayyorlashadi, o'y\*nlar uyuştiradilar. Saylda hamma shod bo'ladi. Navro'z mana shunday kayfiyatda o'tkaz\*ladi. Va Navro'z bayrami juda qiz\*qarli o'tadi.



Yuqorida ko'rib o'tilgan misollardan ko'rishimiz mumkinki, har qanday topshiriqni, savolni, muammoni u qaysi fanga tegishli bo'lmasin, allbatta bir necha yechimini topishimiz mumkin ekan. Muammoning bir necha yechimini topishda o'quvchilar fikrlashlari, mushohada yuritishlari va bilimlarini oshirib, rivojlantirishlarini kuzatishimiz mumkin. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, ta'lim jarayonida divergent tafakkurdan keng foydalanishimiz kerak. Ta'lim berishda mustaqil fikrlashga, fikrlar xilma-xilligini hisobga olishga e'tibor qaratishimiz lozim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'zining kasbiy pedagogik faoliyatini loyihalashtirish, darslar va sinfdan tashqari ishlarni olib borish, pedagogik faoliyatini tahlil qilish uchun divergent tafakkurga muhtoj hisoblanadi. O'qituvchilar tarbiya va ta'limdagi turli xil yondashuvlarning mohiyatini tushunishlari kerak[31].

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi quyidagilarga qodir bo'lishi kerak:

- faoliyatini o'z ko'z o'ngida yoki ongida aks ettira olish va faoliyatida mavjud bo'lgan kamchiliklarni to'g'rilashni amalga oshirish;
- pedagogik faoliyatda turli hodisalarini tanqidiy baholay olish;
- muammolarning yechimidagi noaniqlik holatida o'z yo'nalishini va boshqacha yechimlarni belgilay olish;
- muammoli xarakterdagi bilim va ko'nikmalarni yangi vaziyatga o'tkazishni mustaqil ravishda amalga oshirish;
- standart vaziyatda yangi o'quv muammolarini ko'rish va kirlita olish;
- muammoni hal qilishda muqobil variantlarni yaratib, ulardagi yechimni ko'rib chiqa olish;
- muammolarni hal qilishda usullarni birlashtirish va o'zgartira olish;
- yangi metodlar va texnologiyalarni ishlab chiqish.

Binobarin, faoliyatli yondoshuvni qo'llab tafakkurnio'qituvchilarga ta'lim jarayonining mazmuni ochishda va tashkillashtirishni tanlashda yordam beradi.

## XULOSA

Darslarning yanada samarali, esda qolarli, ta'sirchan bo'lishini ta'minlash, boshlang'ich ta'lim fanlarining go'zalligini, jozibasini, fikrlarning izchilligi va nafisligini ko'rsatib, o'quvchini shu olamga krita olish, o'qituvchining mahorati, bilimi va kompitensiyaviy yondashishiga bog'liq.

Shunday qilib, o'quvchilarda xichoblash, o'lchash va yasashga oid amaliy mazmundagi toopshiriqlarni yechishni o'rganishni amalga oshirish usuli quyidagilardan: birinchi navbatda, xilma-xil vazifa nima ekanligini tushuntirish, so'ngra bunday vazifalarni namoyish etish, ularni qanday yechish kerakligini ko'rsatish, ularni mustaqil ravishda hal qilishni taklif etish va o'quvchilarga o'z vaqtida tezkorlik bilan yechishda yordam berishdan iboratdir. Bu shuni anglatadiki, bunday mashg'ulotni olib boradigan o'qituvchi turli masalalarni yechishda tajribaga ega bo'lishi va muammoni yechishda divergent yondashishni amalga oshirishga ruhiy jihatdan ichki tayyor bo'lishi lozim.

## REFERENCES

1. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика, 1991. 479 с. 28
2. Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: Истиқлол, 1994. -321 бет. 60
3. Педагогика. Энциклопедия. III жилд. жамоа // Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. – 400 б.
4. Савенков А.И. Маленькие исследователи в реальной жизни // Дошкольное образование. № 7-2004. С. 6 -19.